

“SARVQOMAT DILBARIM” QISSASIDA AYOLLAR RUHIYATI TASVIRI

Ziyotova Sevinch Baxtiyor qizi

ToshDO‘TAU O‘FF 2-kurs magistranti

sevinchziyotova69@gmail.com +998971992595

Ilmiy rahbar: F.f.d., Prof, Umida Rasulova

Annotatsiya. Ushbu maqolada Chingiz Aytmatovning “Sarvqomat dilbarim” qissasida obrazlar tasnifi, asarning sotsiologik va psixologik tahlili va asarda ayol obrazining ruhiyati xususida fikr yuritilgan. Yozuvchi qissalaridagi ayol obrazlari turli rakursda qiyosiy tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: an’ana, muhabbat, iroda, ramziy ma’no, pafos, milliylik.

Abstract. This article discusses the classification of images in Chingiz Aitmatov's story "Sarvqomat dilbarim", the sociological and psychological analysis of the work, and the psychology of the image of a woman in the work. The images of women in the writer's stories are analyzed comparatively from different perspectives.

Key words: tradition, love, will, symbolism, pathos, nationality.

Nazm qalqigan ko‘zyoshning tomchilashiga, nasr sukunatga yashiringan to‘fonga o‘xshaydi. M.M.Baxtin aytadi: “Shoir til olamida ijod qilmaydi, u atigi tildan foydalanadi, xolos... Muallif-san’atkorning ijodiy tafakkuri hech qachon tildagi tafakkurga mos kelmaydi, tildagi tafakkur sof-badiiy vazifalarni surunkasiga boshqaruvchi material, jarayondir...”¹³ Shoir oniy tuyg‘ularni tasvirlaydi, mahoratli yozuvchi esa ruhiyat olamiga kirib boradi, qalb torlarini chertadi. Adabiyotshunos B.Karimov aytganlaridek: “Yaxshi kitob yaxshi odamga o‘xshaydi...Yaxshi odamning nomi insoniyatga, G‘arb va Sharqqa birdek daxldor bo‘ladi. Yaxshi odamning kashfiyotlari dunyo kezadi. Tarix sahifalaridan o‘rin oladi”¹⁴. Shunday ijodkorlardan biri Chingiz Aytmatovdir.

“Sarvqomat dilbarim” asarida hayot sinovlari boricha va ziddiyatlarga boy ko‘rinishda aks etgan. Obrazlarning turli xarakteri va ularning ruhiyatidagi evrilishlar qaror qabul qilishlariga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Negaki inson aqlidan ko‘ra ko‘proq qalbiga quloq soladi. Hissiyotlar va ruhiy kayfiyat kishini nimadir qilishga undaydi yoki qaytaradi. Bosh qahramonlar: Asal va Ilyos taqdirida ham ayni shu holatni ko‘rish mumkin.

Iste’dodli ijodkor “Sarvqomat dilbarim” qissasi orqali ijtimoiy muammolarni qahramonlar hayotining murakkab hayotlari talqinida ko‘rsatadi: “Aslida hayotning o‘zi

¹³ Бахтин М.М. Эстетика словесного творчества. Москва. “Искусство”. 1979. Стр.167-168

¹⁴ Bahodir Karim. Adabiy tanqid — jiddiy ijod (2013).

ana shunday murakkab: u qarama-qarshiliklardan, ziddiyatlardan bino bo'lgan. "Sarvqomat dilbarim"da hayotni chandon murakkabligicha tasvirlashga intildim. Ayrim yoshlar bir-birlarini topishadi, sevishadi. Turmush qurishadi. Bir kun qarabsizki, oilalari buziladi, ajrashadi. Umuman, hayotda shu toifadagi yoshlar juda ko'p uchraydi. Ular bir-birlarini yaxshi bilmasdan turib, turmush qurishga shoshilishadi-yu, sal o'tmay fe'llari mos kelmay qoladi. "Sarvqomat..." da shu o'ylarimni ifoda qilishga intildim.

Ilyos ham Doniyor singari boshida o'z muhabbati uchun kurashadi, sevganiga erishadi. Keyin... tabiatan o'jar, qo'rs emasmi, orqa-oldini o'ylamay pala-partish ish tutadi va tuzatib bo'lmas xatolarga yo'l qo'yadi. O'z baxtidan ayrilib qoladi. Bu yo'qotishni birdan-bir aybdori – o'zi! Xatolarini anglaydi, o'kinadi. Lekin endi kech. Asarning dramasi ana shunda..."¹⁵

Sharq xalqlarida qiz bolaga or-nomus timsoli, deb qarash shakllangan. Bu bevosita muqaddas dinimizga borib taqaladi. Asarda turkiylarga mansub qirg'iz elida ham qiz farzandni tarbiyalash bilan bir qatorda, or-nomusini saqlab, turmushga berish ota-onaning zimmasida bo'ladi. Bu ajdoddan avlodga o'tib kelayotgan qadriyatdir: "Qiz bola oltin yombi yoki boshqa oilaning omonati sifatida ko'z qorachig'iday e'zozlanadi. Bu an'ana sandiqning ostida saqlanib, avlodda avlodga meros qilib qoldiriladi...Chunki go'zallik, mehr-muhabbat timsoli ehtiyot qilinsa, yaxshi nom, g'urur, vijdon, milliylik hech qachon o'lmaydi. Ona zotiga har doim sajda qilinadi"¹⁶. Asardan qahramonlar taqdirining bu tarzda yakunlanishiga ikki xil talqin mavjud. Biri – eski urf odatlar saqlanib qolgani sabab yoshlar baxti xazon bo'layotgani bo'lsa, ikkinchisi ota-ona rizoligisiz baxtga yetish qiyinligi tasvirlangan, deya baholanishidir. Umuman olganda, har ikkisida jon bor. Ammo baribir hayot va taqdir o'z so'zini aytmay qolmaydi. Ilyosning shoshqaloqligi, o'jarligi, qaysar xarakteri, hissiyotlariga tayanib harakat qilishi aql inkor etadigan ishlarga undaydi.

Asal hamda Ilyosning ilk uchrashuvi dabdabalardan holi aksincha, yigitning balchiqqa belangan, mashina tuzatish dardida qora moyga botgan, yana biri yelkasiga kamzul tashlab, go'ng tegib, iflos bo'lib ketgan kir ko'ylakda edi.

Ilyosning unga nisbatan qalbida pinhona muhabbat uyg'onganini sezsa-da, tan olishga jur'at etmaydi. Bunga Asalning unashtirilganini ta'siri ko'proq. Eskicha urf-odatlar bo'yicha yaqin qarindoshiga turmushga berish taomili va har qanday zanjirni uzishga undaydigan sof sevgi o'rtasida Asal kamgap va ma'yus bo'lib qolgandi. Yuragi va aqli o'rtasida bir-biriga zid mulahazalar kechayotgan bo'lishiga qaramay, muhabbatini pinhon saqlay olmaydi. Ilyosga "sevaman" degan so'zdan ham qimmatliroq so'zlarni aytadi: "Kutubxonadan kelayotgan edim, qarasam, yo'lda mashinangizni izlari!"¹⁷ Ilk bor rezina etiklar va go'ng teggan ko'ylakda ko'ringan, Ilyosdan: "Yo'lingdan qolma, kampir! Bu yerda hali ancha vaqt aylanishib qolaman, kutaverib toqating toq bo'ladi... – uni

¹⁵ Aytmatov.Ch. Yozuvchi va zamon. Qarang: Adabiyot va zamon. – T.: G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1981-yil, 329-33-betlar.

¹⁶ Aytmatov Ch., Shoxonov M. Cho'qqida qolgan ovchining ohi zori. T.: "Zabarjand Media", 2023. – 412-b.

¹⁷ Aytmatov Ch. Oq kema. Qissalar. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2019. – 311-bet.

ko'rgandan so'ng esa – Shu oyoqlaringga tuflichalar bo'lsami” , – degan so'zlarni eshitgach, kelasi safar tuflichalar va chiroyli ko'ylaklarda chiqib boshlagani ham uni yigitga bo'lgan munosabatini oydinlashtiradi (o'sha asar 291-bet). Asal mashinasining izidan taniydigan darajada e'tibor qilayotgani Ilyosga umid berdi. Buni sevishiga ishora va uni ham o'ylashiga tasdiq deb o'ylaydi. Ikki o't orasida qolgan Asal Jamilaga o'xshash yo'l tutdi. Lekin ularni farqlab, ajratib turadigan turuvchi masala bor. Bu Asalning qachondir ota-onasi yoniga qaytish va ulardan uzr so'rash istagidir.

Qissa keskin burilishlarga boy. “Bo'tako'z”da Abu Bakr, “Oq kema”da O'rozqul, “Birinchi muallim”da Satimqul, “Somon yo'li”da Jekshenqul bo'lgani kabi “Sarvqomat dilbarim”da Jontoy obrazi kiritilgan bo'lib, Asal va Ilyosning munosabatlarining buzilishi va mutlaq uzilishiga ta'sir ko'rsatadi. “Boshqacha aytganda, asar shunchaki ikki yoshning sevgi qissalaridan iborat bo'lmay, unda sevgi bahonasida insonning insonlik burchi, el-yurt oldidagi burchi. Halollik, adolat, diyonat kabi masalalar ko'tarilgan”¹⁸.

Ayollar obrazida Xadicha ham borki, uning bilvosita ta'siri Asalning hayotini o'zgartirib yuboradi. Xadichaning turmushi o'xshamagan, ammo oilali Ilyosni sevadi. Ilyos esa o'zini, o'zligini anglolmay, chin sevgisiga xiyonat qilgani sabab ham sarvqomat dilbaridan, ham farzandidan ayriladi. Eng alamlisi uni Boytemir bilan bir oila bo'lib yashayotgani-yu, farzandi Ilyosni tanimay, Boytemirni dada deb yurganida. To'g'ri, hamma baxtli bo'lishga haqli. Ammo o'zgalarning baxtini tortib olish evaziga emas. Ular munosabatlarining jiddiy tus olishida Ilyos ko'proq aybdor: oila mas'uliyati, Asalning sevgisiga sadoqat, vijdon oldida javobgarlik hissi kabi tuyg'ular uni bu yo'ldan qaytarishi kerak edi. A.Qahhorning “Mayiz yemagan xotin” hikoyasi, Cho'lponning “Kecha va Kunduz” romani, N.Eshonqulning “Urush odamlari” qissasidagi qahramonlar singari Ilyosning ham ixtiyori o'zida bo'lgan, oxirini o'ylamay shunday qarorga kelgan. Muallif voqealarning real chiqishi va emotsional kuchini kamaytirmaslik uchun Ilyosga odil hukm chiqaradi: u shunga loyiq. Ilyosning o'zi aytganidek: “Har kimning o'z xulqi, fe'l-atvori bor. Ularni boshqarib turish kerak, albatta, biroq bunga hamma vaqt muyassar bo'lavermaydi kishi...” Sevgisi yo'lida sobit turolmaganligi uchun Asalni qo'ldan chiqaradi, hatto Xadicha bilan ham baxtli bo'lolmaydi. Issiqko'l esa birinchi baxtning guvohi bo'lib qolaveradi: “Yo'lga chiqish oldidan ko'lga, o'sha tik tepalikka bordim. U yerda men Tyanshan bilan vidolashdim. Issiqko'l bilan xayrlashdim. Xayr, Issiqko'l, tugallanmay qolgan orombaxsh kuylarim! Moviy to'lqinlaring va oltin qirg'oqlaring bilan birga qo'shib seni ham birga olib ketardim-u, ammo sevgilimning sevgisini olib keta olmaganimdek seni ham olib ketish qo'limdan kelmaydi. Alvado, Asal! Alvado, qizil durrachali sarvqomatim! Alvado, sevgilim! Baxtiyor bo'lgil...”¹⁹

Jamila va Asal obrazlari ma'lum ma'noda bir-biriga yaqin. Buyuk qirg'iz adibi Chingiz Aytmatov va Qozog'istonning milliy qahramoni darajasidagi mashhur ijodkor

¹⁸ G'aniyev I., Ibrohimov R. Chingiz Aytmatov Sharq donishmandi. Monografiya. – “Durdona”, 2024. – 54-b

¹⁹ Aytmatov Ch. Oq kema. Qissalar. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2019. – 429-bet.

Muxtor Shoxonovning “Cho‘qqida qolgan ovchining ohi zori” kitobida shunday o‘rinlar bor: Shoxonov. Albatta, aql bovar qilmaydigan zamonlarda ayollarning zimmasiga og‘ir majburiyat olishini tushunish mumkin. Masalan, Sizning “Jamila” nomli qissangizni eslaylik. Lui Aragon uni: “Dunyoda muhabbat to‘g‘risida yaratilgan eng go‘zal qissa!”deb baholaydi. Ulug‘ Vatan urushida ayollarimizning qariyalar va o‘smirlar qatorida turib shomgacha ter to‘kib mehnat qildilar. Ko‘pga kelgan to‘ydan hech kim qochib qutilmaydi.

Sirtan qaralsa, bu qissa xuddi urush to‘g‘risida yozilgandek tuyuladi. Aragon nima uchun muhabbat haqida yozilgan deb ataydi? Chunki Siz hamma narsadan ustun bo‘lgan Muhabbatni tasvirlab bergansiz. Ayni chog‘da o‘lim ham haqqoniy aks ettiriladi. Feodal zamondan qolgan itoatgo‘ylik kabi sarqitlar fosh qilinadi. Jamila ma‘shuqaning erkin, qizg‘in qalbi bilan yashaydi. Uning uchun oliy haqiqat mana shu. Puturdan ketgan, munofiq axloq tarafdorlari qissani quturib tanqid qiladilar. Ular inson tuyg‘ularini temir katak ichiga haydab kiritib, mahv etmoqchi bo‘ladilar.

Chike, Siz inson faqat mehnat bilan baxtli bo‘lmasligini isbotlab berdingiz. Shubhasiz, millionlab o‘quvchilar millatidan qat’iy nazar, Jamiladan ozodlik ilmini, qalb va aql-idrok erkinligini o‘rganadilar. Totalitar tuzumning ayol ustidan o‘rnatgan hukmronligiga qarshi norozilik timsoli – Jamila. Xalq bu isyon siymosida norozilikni ko‘radi.

Aminmanki, go‘zallik va mehr qadrsizlangan joyda johillik va bachkanalik boshlanadi.

...Afsuski, kishi ruhining muhandislari bo‘lmish biz, yozuvchilarning ham bu borada aybimiz bor: sotsialistik realizm metodiga amal qilamiz, deb ayol-rahbar timsolini uyalmasdan adabiyotga olib kirdik. Ayol direktor, partko‘m kotiblari erkakdan battar qo‘pol, shallaqi, uddaburon bo‘lishadi. Turish-turmushi ha, gap-so‘zlari ham erkakshoda. Shunday qilib, kommunist-konstruktorlar Xudoning o‘zi yaratib qo‘ygan ayol bilan erkak o‘rtasidagi tafovutni yo‘qotmoqchi bo‘ldilar”²⁰. Ch.Aytmatov asarlari ayollar erki, qadri, ijtimoiy hayotdagi roli haqida o‘ylashga undaydi. “Bo‘tako‘z” qissasida Qalipa yoki Oltinoyda ayni shunday xo‘rlanish, toptalish takrorlanadi.

Ilhom G‘aniyev va Rustam Ibrohimovning “Chingiz Aytmatov – Sharq donishmandi” monografiyasida quyidagicha fikr bildirishadi: *“Qachonlardir Izolda, Julyetta, Layli, Jamilalar ham oldilarida hisob-kitobga asoslangan nikoh (sevgi emas!) masalasi bamisoli Buyuk Xitoy devoridek ko‘ndalang bo‘lganda shunday holga tushishgandi. Shu murakkab lahzalarda Asal ana o‘sha qizlar kabi yo‘l tutdi - eskilikka, hurlikni bo‘g‘uvchi jaholatga qarshi isyon ko‘tardi...”*. Jamila, Asal, Aliman obrazlarini ikkiyoqlama qarash bilan tahlil qilgan ma‘qul. Biri ramziy, ikkinchisi asardagi situatsiyasi jihatdan. Ramziy jihatdan ular erk uchun kurashgan qahramonlar bo‘lishi mumkin. Qirg‘iz xalqlarida nikoh masalasiga biroz erkin qarashlari ham haqiqat. Boshqalarga ibrat

²⁰ Aytmatov Ch., Shoxonov M. Cho‘qqida qolgan ovchining ohi zori. T.: “Zabarjand Media”, 2023. – 419-421-betlar.

bo'lishi uchun ular timsol deb hisoblangani ma'qul. Ammo o'rnak oladigan yoki namuna qilib ko'rsatiladigan qaharamonlar emas. Urush dunyo yaralgandan beri davom etmoqda. Uning sovuq shamoli bizning yurti ham chetda qoldirmagan, albatta. Bunday paytda ko'pchilik ayollar ularning yo'lini tutishmagan: iroda, sabr, matonat, odob-axloq, milliy va diniy tushunchalar, vafo va sadoqat sabab qiyinchiklarni yengib o'tishgan. Jamiyat tomonidan qabul qilingan, qonun yo din inkor etmagan yo'llar bor-ku. Nega aynan xiyonatga urush sabab bo'lishi kerak? Inson Alloh yaratgan mavjudotlarning eng ulug'i ekan, uning ong-tafakkuri, aqli, vaziyatni his etish va baholashini uzviy qilib yaratgan. Shunday ekan, Vatanga, oilaga yoki do'stga xiyonat qilish gunoh. Jamilaning turmush o'rtog'i o'z yurti va oilasining tinchligi uchun kurashib urushga ketgan. Ular orasida muhabbat bo'lmagan bo'lishi mumkin, lekin u turmush qurgan, eng asosiysi, u uchun qon kechib jang qilmoqda. Qoraxat kelganda hamda oilasi tomonidan unga "ruxsat berilganda" mutlaqo boshqacha bo'lar edi, balki.

"Qizil durrachali sarvqomat dilbar" Asal esa ota-ona rizoligisiz turmush qurdi. Eskicha urf-odatlar sabab uzoq qarindoshiga uzatilayotgani sabab qilib ko'rsatiladi: "Nega ular juma kuni haqida gapirib qolishdi? – deb o'yladim men. "Bugun qanaqa kun? Chorshanba... nahotki juma kuni olib ketishsa? Eh, qachongacha eski urf-odatlar biz yoshlarning hayotimizni poymol etadi?"²¹ Bu o'rinda Chingiz Aytmatovga xos xususiyat: ijtimoiy muammolarning badiiy asarga singdirib yuborilishi yaqqol ko'zga tashlanadi. Buni jamiyat qusuriga va uning natijasida ko'payib borayotgan Asal va Ilyoslar taqdiriga tutilgan ko'zgu sifatida qarash maqsadga muvofiq, nazarimda. "Hurlikka qaratilgan isyon" deya ta'riflash chorlovga o'xshaydi. "Sarvqomat dilbarim" qissasidan ma'lumki, Asalning tanlagan yo'li o'zini oqlamaydi.

O'z holicha ulg'aygan, o'qituvchisi bergan ta'limi va intilishi sabab, keyinchalik fan doktori darajasiga ko'tarilgan Oltinoy obrazi Asal va Jamiladan o'zgacha. U hech kimning yuzini shuvut qilmadi, xiyonat qilmadi, aksincha o'z yaqinlaridan ham, begonalardan ham ozor ko'rdi. Ulardan ustun fazilati hayotning go'zalligidan bahra ololdi, undagi yaxshilik, ezgu ishlar, yo'llarni tanlay oldi. Garchi muallimini yoqtirib qolgan bo'lsa-da, buni mehr ko'rmagan bo'shliq ko'ngil tanlovi deya izohlash mumkin. Muhimi, Duyshen ham, Oltinoy ham o'z o'rnilarida bo'la olishganidir. Qolaversa, Oltinoyning muhabbati qalbida pinhon saqlanadi, boshqacha yo'l tutmaydi.

Xulosa qilib aytganda, "Sarvqomat dilbarim" qissasini psixologik va sotsiologik metod orqali tahlil qilganda davr ruhini o'zida aks ettirgan, adabiyot materiali bo'lgan hayotda uchraydigan voqealarning o'ziga xos badiiy sintezdagi ko'rinishidir. Unga "nasrda bitilgan doston" deya ta'rif berilishining sababi pafos bilan yo'g'rilganligi hamda psixologik tasvirlaridadir.

²¹ Aytmatov Ch. Oq kema. Qissalar. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2019. – 309-bet.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Бахтин М.М. Эстетика словесного творчества. Москва. “Искусство”. 1979. Стр.167-168
2. Bahodir Karim. Adabiy tanqid — jiddiy ijod (2013).
3. Aytmatov.Ch. Yozuvchi va zamon. Adabiyot va zamon. – T.: G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1981-yil.
4. Aytmatov Ch., Shoxonov M. Cho‘qqida qolgan ovchining ohi zori. T.: “Zabarjand Media”, 2023. – 480 b.
5. Aytmatov Ch. Oq kema. Qissalar. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2019. – 430.
6. G‘aniyev I., Ibrohimov R. Chingiz Aytmatov Sharq donishmandi. Monografiya. – “Durdona”, 2024. – 322 b.